



FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi


So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari 38,3 mingtani tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 32,1 mingta.

Shuningdek, ushbu davrga 63,9 mingta korxonalar ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati 104,7 foizni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar soni to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

(1- oktabr holatiga)




Yangi tashkil etilgan korxonava tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxonava tashkilotlar soni 5,0 mingtani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonava tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Yozyovon tumani (77 taga), Rishton tumani (32 taga) va Farg'ona tumanida (8 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 41 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 38,3 mingtani tashkil etdi, ulardan 32,3 mingtasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 34,2 foiz, sanoat – 17,4 foiz, qurilish – 6,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,6 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Farg'ona shahrida – 16,7 foiz, Qo'qon shahrida – 10,0 foiz, Marg'ilon shahrida – 7,5 foiz, Oltiariq tumanida – 5,8 foiz va Uchko'prik tumanida – 5,0 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda.


2024- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 903 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 4 879 ta;
- yirik korxonalar 24 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 32,3 mingtani tashkil etdi, ulardan 32,1 mingtasi kichik korxonalar va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 40,7 foiz, sanoat – 20,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 4,3 foiz, qurilish – 7,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,6 foiz, tashish va saqlash – 4,4 foiz, axborot va aloqa – 1,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,4 foiz, boshqa turlari – 10,6 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog'lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 103 tadan 141 taga (o'sish 38 taga) ko'paydi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Farg'ona shahrida (16,5 foiz), Qo'qon shahrida (10,2 foiz), Marg'ilon shahrida (7,8 foiz), Oltiariq tumanida (6,1 foiz) va Uchko'prik tumanida (6,1 foiz) faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2024- yil 1- oktabr holatiga)


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko‘p qismi So‘x (8,8 foiz), Qo‘shtepa (8,1 foiz) va Yozyovon (7,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

1 362



67

Baliq ovlash va akvakultura

O‘rmonchilik va yog‘och tayorlash

10




(2024- yil 1- oktabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 17,4 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,9 foizini ishlab chiqarish sanoati, 2,5 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,7 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash va 0,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



6 339

Ishlab chiqarish sanoati



169

tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



57

Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



111

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




(2024- yil 1- oktabr holatiga)



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 49,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 31,4 foiz ulushni tashkil etdi.
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 19,5 foiz ulushni tashkil etdi;

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 13 076 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 57,8 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 32,8 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,4 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	1758
Qo'qon shahar	1436
Marg'ilon shahar	1074
Uchko'prik tumani	709
Oltiariq tumani	695
Farg'ona tumani	633
Toshloq tumani	617
Dang'ara tumani	611
Buvayda tumani	600
O'zbekiston tumani	581
Quvasoy shahar	581
Quva tumani	570
Qo'shtepa tumani	517
Yozyovon tumani	507
Rishton tumani	487
Beshariq tumani	461
So'x tumani	456
Bag'dod tumani	442
Furqat tumani	388

Yillar kesimida soni (birlikda)



7 574

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

4 309

1240

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 2 140 taga yetib, ularning 2 133 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:




- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 6,0 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 94,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	518
Qo'qon shahar	173
Oltiariq tumani	148
Rishton tumani	145
Marg'ilon shahar	121
Farg'ona tumani	106
Bag'dod tumani	103
O'zbekiston tumani	100
Quva tumani	96
Quvasoy shahar	91
Dang'ara tumani	81
Qo'shtepa tumani	81
Toshloq tumani	74
Uchko'prik tumani	65
Buvayda tumani	56
Furqat tumani	56
Beshariq tumani	49
Yozyovon tumani	45
So'x tumani	32

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	210
Qo'qon shahar	56
Marg'ilon shahar	47
Oltiariq tumani	38
Rishton tumani	35
Buvayda tumani	34
Quva tumani	32
Toshloq tumani	26
Qo'shtepa tumani	22
Bag'dod tumani	17
Uchko'priq tumani	14
Farg'ona tumani	13
O'zbekiston tumani	11
Dang'ara tumani	11
Quvasoy shahar	11
Beshariq tumani	10
So'x tumani	8
Furqat tumani	7
Yozyovon tumani	5







2024-yil 1-oktabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxonalar va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 72,8 foizini;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 23,2 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 4,0 foizni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni (birlikda)



	Kompyuter dasturlash, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	199	243	Aloqa 
	Noshirlik faoliyati	83	58	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyati 
	Kino-videofilmlar,televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	18	6	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish 

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1 090 ta yoki 86,2 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 92,0 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;



yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,8 foizini tashkil etdi.;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,2 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	284
Qo'qon shahar	146
Marg'ilon shahar	78
Farg'ona tumani	75
Buvayda tumani	64
Oltiariq tumani	60
Beshariq tumani	59
Uchko'prik tumani	57
O'zbekiston tumani	56
Quva tumani	56
Toshloq tumani	55
Qo'shtepa tumani	49
Rishton tumani	43
Dang'ara tumani	40
Bag'dod tumani	39
Furqat tumani	33
So'x tumani	29
Yozyovon tumani	25
Quvasoy shahar	16

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)


Oltiariq tumani	344
Farg'ona shahar	246
Qo'qon shahar	155
Marg'ilon shahar	84
Toshloq tumani	65
Farg'ona tumani	56
Quvasoy shahar	56
O'zbekiston tumani	55
Quva tumani	49
Uchko'prik tumani	47
Dang'ara tumani	43
Beshariq tumani	42
Qo'shtepa tumani	34
Rishton tumani	30
Buvayda tumani	29
So'x tumani	24
Furqat tumani	24
Bag'dod tumani	23
Yozyovon tumani	23

2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,7 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 73,4 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 25,1 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,4 foizni;
- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,1 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)


Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)



(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	655
Qo'qon shahar	371
Marg'ilon shahar	275
Yozyovon tumani	263
Qo'shtepa tumani	216
Quva tumani	202
Oltiariq tumani	193
Buvayda tumani	183
Quvasoy shahar	182
Uchko'prik tumani	179


Toshloq tumani	173
Beshariq tumani	168
O'zbekiston tumani	147
Farg'ona tumani	139
Dang'ara tumani	129
Rishton tumani	128
Furqat tumani	107
Bag'dod tumani	105
So'x tumani	66

(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)


Amaldagi 32,3 mingta tijorat korxonalar va tashkilotlaridan 2024- yil 1- oktabr holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 21,4 mingtani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,3 foiz, sanoat – 18,4 foiz, qurilish – 9,3 foiz, tashish va saqlashda – 5,9 foiz.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	3849
Qo'qon shahar	2775
Marg'ilon shahar	1875
Uchko'prik tumani	1118
Oltiariq tumani	1096
Toshloq tumani	1033
Dang'ara tumani	1006
O'zbekiston tumani	960
Qo'shtepa tumani	942
Quva tumani	882


Yozyovon tumani	853
Farg'ona tumani	850
Quvasoy shahar	829
Buvayda tumani	787
Beshariq tumani	630
Bag'dod tumani	530
Rishton tumani	484
Furqat tumani	473
So'x tumani	415

(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- oktabr holatiga)


2024- yil 1- oktabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Farg'ona shahrida – 991 ta, Farg'ona tumanida – 429 ta va Bag'dod tumanida – 415 ta.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 2 617 ta, sanoat – 1 112 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 553 ta va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 294 ta.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	991
Farg'ona tumani	429
Bag'dod tumani	415
So'x tumani	405
Marg'ilon shahar	391
Oltiariq tumani	383
Buvayda tumani	367
Rishton tumani	345
Quva tumani	343
Uchko'prik tumani	304


Beshariq tumani	238
Qo'qon shahar	237
Toshloq tumani	228
O'zbekiston tumani	175
Quvasoy shahar	175
Dang'ara tumani	158
Yozyovon tumani	150
Qo'shtepa tumani	146
Furqat tumani	144

(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Rishton tumani	84
Oltiariq tumani	59
O'zbekiston tumani	51
Bag'dod tumani	48
So'x tumani	41
Farg'ona shahar	39
Marg'ilon shahar	39
Farg'ona tumani	38
Quvasoy shahar	37
Furqat tumani	31


Toshloq tumani	25
Qo'qon shahar	25
Quva tumani	24
Uchko'prik tumani	23
Dang'ara tumani	19
Qo'shtepa tumani	18
Beshariq tumani	18
Buvayda tumani	8
Yozyovon tumani	7

(2024- yil 1- oktabr holatiga)


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 4,5 mingtani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 36,1 foiz, sanoat – 33,8 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 15,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,5 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Rishton tumanida – 11,3 foiz, Farg'ona shahrida – 9,8 foiz va Oltiariq tumanida – 9,5 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Rishton tumani	512
Farg'ona shahar	445
Oltiariq tumani	430
O'zbekiston tumani	279
Dang'ara tumani	271
Qo'qon shahar	262
Bag'dod tumani	253
Marg'ilon shahar	249
Quvasoy shahar	230
Uchko'prik tumani	218

Farg'ona tumani	203
Beshariq tumani	195
Furqat tumani	194
So'x tumani	159
Toshloq tumani	157
Quva tumani	139
Buvayda tumani	136
Qo'shtepa tumani	135
Yozyovon tumani	63

(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)


Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Mavsumiy va ko'p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo'limning asosiy yo'nalishlari bo'lib, fermer xo'jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiy sonining 100,0 foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Rishton tumani	9
O'zbekiston tumani	5
Dang'ara tumani	4
Oltiariq tumani	3
Buvayda tumani	2
Qo'shtepa tumani	1
Bag'dod tumani	1
Beshariq tumani	1
Quva tumani	1
Uchko'prik tumani	1
Toshloq tumani	1
Farg'ona shahar	1

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- oktabr holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Rishton (11,6 foiz), O'zbekiston (10,6 foiz) va Quva (9,1 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Rishton tumani	1220
O'zbekiston tumani	1112
Quva tumani	959
Farg'ona tumani	869
Uchko'prik tumani	856
Oltiariq tumani	792
Bag'dod tumani	792
Beshariq tumani	673
Toshloq tumani	551
Quvasoy shahar	543
Dang'ara tumani	438
Qo'shtepa tumani	425
Yozyovon tumani	395
Furqat tumani	385
Buvayda tumani	353
Farg'ona shahar	92
So'x tumani	68

Yillar kesimida soni (birlikda)



Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni o‘shir sur‘ati 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 186,8 foizni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg‘ona shahar	27
Qo‘qon shahar	16
Marg‘ilon shahar	9
Quvasoy shahar	8
Uchko‘prik tumani	7
Oltiariq tumani	6
Bag‘dod tumani	5
Farg‘ona tumani	4
Buvayda tumani	3


Beshariq tumani	3
Rishton tumani	2
O‘zbekiston tumani	2
Furqat tumani	2
Yozyovon tumani	2
Qo‘sh tepa tumani	1
Toshloq tumani	1
Dang‘ara tumani	1

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlari mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 476 ta korxonalaridan 216 tasi qo'shma korxonalar va 260 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	145
Qo'qon shahar	62
Quvasoy shahar	35
Marg'ilon shahar	32
Uchko'prik tumani	31
Beshariq tumani	19
Farg'ona tumani	19
Oltiariq tumani	18
Bag'dod tumani	17
O'zbekiston tumani	16

Dang'ara tumani	15
Quva tumani	14
Toshloq tumani	11
Rishton tumani	9
Furqat tumani	9
Buvayda tumani	8
So'x tumani	6
Yozyovon tumani	6
Qo'shtepa tumani	4

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 110,4 foizga oshdi.

Yetakchi o'rinni 137 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 28,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 22,9 foiz), Turkiya (ulushi 12,2 foiz), Qirg'iziston (ulushi 5,5 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 5,3 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

(2024- yil 1- oktabr holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarining jami soniga nisbatan eng katta ulushi Farg'ona shahri 30,5 foiz, Qo'qon shahri – 13,0 foiz, Quvasoy shahri – 7,4 foiz, Marg'ilon shahri – 6,7 foiz va Uchko'prik tumani – 6,5 foiz to'g'ri keladi.

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

qo'shma korxonalar


xorijiy korxonalar



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2024- yil 1- oktabr holatiga)



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).


Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- sentabrdagi** “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida **2024- yil 1- oktabr** holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:(73) 241-96-46

PRESS-RELIZ

